

ABDULLA AVLONIYNING “MAKTAB GULISTONI” ASARIDA TA’LIMGA OID MASALALAR VA MUAMMOLAR

Sadullayeva Maftunabonu Zavkiddinovna

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat

Pedagogika universiteti Musiqa ta’limi yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Maqolada Abdulla Avloniy hayoti va ijodi to‘g‘risidagi ayrim muhim faktlar, uning ta’lim va tarbiyaga oid asarlari va shu asarlarda keltirilgan nodir fikrlar haqida so‘z boradi. Shuningdek, adibning “Maktab Gulostoni” asarida qalamga olingan dolzarb muammolardan biri – ta’lim masalalari xususida fikr yuritiladi.

Katil so‘zlar: Maktab, ta’lim, Avloniy, she’rlar, Vatan, mafkura, kitob, bili, uyg’onish davri.

Inson yashar ekan, butun hayoti davomida ta’lim olishga intiladi. O‘zi uchun zarus bo‘lgan turfa bilimlarni egallashga harakat qiladi. Bu uchun esa hayotining, kunining aksar qismini sarflaydi. Ta’lim umrimizning ko‘p qismini egallar ekan, shubhasiz, u biz uchun eng muhimini, eng asosiysi bo‘lib qoladi.

Ta’limning inson hayotidagi o‘rni, uning kelajagi shakllanishidagi ahamiyati haqida ham ko‘pgina olimlar o‘z risolalarida, turli asarlarda yozib qoldirganlar.

Ta’limning otasi, uyg’onish davrining buyuk namoyindasi, mahoratli oedagog va yetuk olim Abdulla Avloniyning ham ta’lim, ustozlar va maktab haqidagi asarlari o‘z davrining yetuk va mukammal darsliklari hisoblangan. "Birinchi muallim", "Ikkinchchi muallim", "Turkiy Guliston yoxud axloq" hamda "Maktab Gulostoni" singari ko‘plab darsliklar maktabkarda, xususan Avloniyning o‘zi ochgan maktablarida eng oldi darsliklardan bo‘lgan.

Adibning "Maktab Gulostoni" asari o‘z davrinida faoliyat yuritgan maktablarning ikkinchi sinfida tahail oluvchi o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, Avloniyning o‘zi bu asar haqida shunday yozadi: "Adabiy axloqiy maroq-u shavq ila o‘quladirg‘an hikoyalari, she’r ila Turkiston maktabining ikkinchi sinflaridan boshlab o‘qutmoqg‘a muvofiq ravishda yosh bolalar uchun yengil vazn va oson sheva uzra tartib berildi".

Asar muallifning maktab to‘g‘risidagi serma’no va serqirra she’ri bilan boshlanadi:

Maktab - xazinai adabu ilm(u) izzating,

Maktab - bog‘i Jannati Firdavs, ne’mating.

Maktab kishini jahl(u) daniydan qilur xalos,

Maktab - kalidi Ka“bai qalb(u) zakovating.

Avloniy kitobning ilk sahifalaridanoq maktabga yuqori baho beradi. Uni oliy dargoh - Ka‘ba ila teng ko‘radi. Jannatdek orombaxsh makonligini ta’kidlaydi. Maktab inson boshiga yog‘diruvchi ma’rifat jaholatdan, g‘azabdan xalos qilishi haqida so‘zlaydi. Albatta, maktab insonga bilim xazinasini beruvchi dargoh. Maktab qalbni zakovatga to‘ldiruvchi manba.

Abdulla Avloniyning "Maktab Gulostoni" asarida faqatgina maktab-u ilm to‘g‘risida yozilmaydi, balki inson hayoti uchun zarur bo‘lguvchi fazilatlar - yaxshilik va halimlik, saxiylik va baxillik, mehribonlik hamda odob singarilar turli majoziy obrazlar: hayvonkar

hamda jonsiz buyumlar siymolari orqali hikoya qilinadi. asar tarkibiga kiriychi "Bola ila gul", "Bulbul", "Tulki bilan serka", "Maymun ila ko'zoynak" singari she'rlar buning yaqqol ifodasidir. Bu she'rlaridagi nozik so'z o'yinlari, yosh bolalar uchun tushunarli hamda ravon til hamda ular uchun qiziqarlilikni ta'minlovchi turfa voqealar tasvirlanadi.

Asar "Maktab Gulostoni" deya nomlangan ekan, tabiiyki, unda maktab hamda bilim olishning ahamiyati to'g'risida turli she'rlar mavjud.

Asardan joy olgan "Maktab bolasi" she'rida o'quvchilar uchun zarur bo'lgan ijobiy xislatlar to'g'risida so'z boradi. Maktabning inson hayotidagi o'rni, maktab va ta'lidan yuz o'girgan kimsaning qismati go'zal satrlarda ifoda etilgan. She'rdagi:

Yaxshilar yaxshiliqg'a boshlaydur,
Yamon o'rtog' yaqongdan ushlaydur

Misralari bilimsiz insonning, shu qatorda bilimsiz bilan do'st tutingan insonning ayanchli hamda ibratli qismati to'g'risida yoziladi. Shuningdek she'rda "Bilagi zo'r birni yiqar, bilimi zo'r mingni" maqoli ham ibratli satrlarda o'z aksini topadi.

"Maktab Gulostoni" asaridan joy olgan yana bir "Maktab" she'rida ushbu dargohning fazilatlari, afzalliklari tushunarli so'zlarda tushuntirib berilgan:

Firdavsi jinon maktab, nodinlara jon maktab,
Bilgan kishiga qadrin bir dorulomon maktab.
Ko'ngil oshig'i maktab, ruhning pishig'i maktab,
Ilm-u adabi o'rgatgay, donamda, ko(r)don maktab.

Avloniy ushbu she'rida ham ilm dargohiga yuksak baho beradi. Ilmli inson uchun mактабдан o'zga yaxshi va munosib joy yo'qligini ta'kidlaydi. Maktab ko'ngilga ora kiruvchi oromligi aytildi. Insonga muqaddas bo'lgan bilimlarni berishi haqida so'zlanadi. Johil-u yalqovlar uchun maktabning azobli sinovligi, bilimli-yu ziyorolar uchun esa ushbu dargoh baxt o'chog'iligi haqida yoziladi.

Ushbu "Maktab Gulistonni" asarida maktab, ustozlar va ilm olish haqidagi she'rlar bilan bir qatorda Vatan, to'rt fasl tarovati, hayvonot olami fazilatlari to'g'risida ham she'rlar mavjud. Shuningdek, Islomning farzlari, xususan, Namozning do'zax o'tidan pardaligi, Ramazon ro'zasining qanchalar ulug' amalligi hamda Hajning inson hayoti, bu va oxirat dunyosidagi foydalari haqida so'zlanadi.

U o'z zamonasining jonli odami, farzandi edi. Shuning uchun uning ijodida ham zam on murakkabligi bilan izohlanadigan nuqsonlar yo'q emas. Lekin yuqorida shoirning m a'rifatchilik faoliyati va ijodiy merosi misolida'ko'rib o'tganimizdek, Abdulla Avioniy hamisha o'z xalqiga, Vataniga sodiq qoldi. Buning guvohi — uning ijodi, uning faoliyati! U hamma vaqt xalq dardi bilan yashadi, U o'z xalqi g'amiga hamdardgina bo'lib qolmadni, uning istiqboli uchun qayg'urdi, unga ozodlik va baxt qidirdi, uni muqaddas g'oyalar uchun kurashga da'vat qildi. Maktablar ochib, keng xalqni m a'rifatli qilishga, yoshlami davming ilg'or ruhida tarbiyalashga urindi. Ta'limiyl-axloqiy asarlar, darsliklar yozib, o'zbek pyedagogik fikri taraqqiyoti^ sezilarli iz qoldirdi. Jadidchilik harakatining, o'zbek jadid adabiyotining, ya'ni milliy ong, milliy adabiyotning maydonga kelishi va taraqqiyotiga katta xizmat qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Avloniy Tanlangan asarlar. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2009. B.79.
2. Abdulla Avloniy Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2010.
3. Wikipedia.org.
4. Fayllar.org.